

**SANOAT TURIZMIDA ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARINING  
TURISTIK KO'RINISHI VA YANGI TURIZM TRENDI**

*Kimyo International Univercity in Tashkent*

***Saydaliyev Muzaffar Qahramon o'g'li***

*Shokirov Fahriddin Furqat o'g'li*

ORCID ID : 0009 0009 1647 3367

ORCID ID : 0009-0007-7647-4412

[muzaffarsaydaliyev12@gmail.com](mailto:muzaffarsaydaliyev12@gmail.com)

[shokirovf2002@gmail.com](mailto:shokirovf2002@gmail.com)

**Anotatsiya:** Mazkur maqolada sanoat turizmining ishlab chiqarish korxonalaridagi turistik ko'rinishi, sanoat turizmining umumiy turizmdagi o'rni, Sanoat turizmida ishlab chiqarish korxonalarining turistik ko'rinishi, sanoat turizmi sohasidagi yangi yo'nalishlar va uning rivojlanish istiqbollari haqida batafsil tahlil olib boradi. Sanoat turizmi – ishlab chiqarish jarayonlari, tarixiy sanoat ob'ektlari va faoliyatdagi ishlab chiqarish korxonalarini o'rganish orqali turistik tajriba yaratishga qaratilgan turizm turi bo'lib, so'nggi yillarda yangi trendlarga ega bo'lmoqda. Maqolada sanoat turizmining asosiy tushunchalari va xususiyatlari, uning tarixiy va zamonaviy sanoat ob'ektlaridagi turistik ko'rinishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ishlab chiqarish korxonalari va sanoat inshootlarining turistik jihatdan qanday rivojlanayotgani, bu sohaning iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarga ta'siri muhokama qilinadi. Maqolada sanoat turizmining mahalliy va global miqyosda qanday rivojlanayotganligi, yangi texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning sanoat turizmiga qo'shgan hisssasi, shuningdek, bu sohaning kelajakdagi istiqbollari o'rganiladi. Shuningdek, maqolada sanoat turizmining mahalliy iqtisodiyotdagi o'rni, turizmining bu turidan foyda olish imkoniyatlari, yangi turistik tajribalar yaratish va innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishning ahamiyati ko'rsatiladi. Ushbu tahlil sanoat turizmi bilan shug'ullanayotgan mutaxassislar, turistlar va yangi yo'nalishlar haqida batafsil ma'lumot olishni istaganlar uchun qimmatli manba bo'lib xizmat



qiladi. Maqolada taqdim etilgan ma'lumotlar sanoat turizmining kelajagi va uning yangi trendlari haqida chuqurroq tushuncha olishni xohlaganlar uchun foydali bo'ladi.

**Kalit so'zlar :** turizm, sanoat turizmi, ishlab chiqarish korxonalari, iqtisodiyot, texnologiyalar, zavodga ekskursiya, sanoat turizm tarixi, investitsiya

**Аннотация:** В данной статье подробно анализируются туристические аспекты промышленных предприятий, место промышленного туризма в общем туристическом секторе, а также новые направления в области промышленного туризма и перспективы его развития. Промышленный туризм представляет собой вид туризма, ориентированный на создание туристического опыта через изучение производственных процессов, исторических промышленных объектов и функционирующих производственных предприятий, который в последние годы приобрел новые тенденции. В статье рассматриваются основные понятия и особенности промышленного туризма, а также туристические аспекты исторических и современных промышленных объектов. Также анализируется, как развиваются производственные предприятия и промышленные сооружения с точки зрения туризма, и обсуждается их влияние на экономические и культурные изменения. В статье рассматривается развитие промышленного туризма как на местном, так и на глобальном уровнях, вклад новых технологий и инновационных подходов в развитие промышленного туризма, а также перспективы этой отрасли. Кроме того, в статье уделяется внимание месту промышленного туризма в местной экономике, возможностям извлечения выгоды из этого вида туризма, созданию новых туристических опытов и важности внедрения инновационных подходов в эту сферу. Этот анализ служит ценным источником информации для специалистов в области промышленного туризма, туристов и тех, кто заинтересован в новых направлениях. Представленные в статье данные помогут более глубоко понять будущее промышленного туризма и его новые тенденции.



**Ключевые слова :** Туризм, промышленный туризм, производственные предприятия, экономика, технологии, экскурсия на завод, история промышленного туризма, инвестиции.

**Abstract :** This article provides a detailed analysis of the tourist aspects of industrial enterprises, the place of industrial tourism within the broader tourism sector, as well as new trends in industrial tourism and its development prospects. Industrial tourism is a type of tourism aimed at creating a tourist experience by studying production processes, historical industrial sites, and operating production enterprises, which has gained new trends in recent years. The article examines the key concepts and features of industrial tourism, as well as the tourist aspects of historical and modern industrial objects. It also analyzes how production enterprises and industrial facilities are developing from a tourism perspective, and discusses their impact on economic and cultural changes. Furthermore, the article explores the development of industrial tourism both locally and globally, the contribution of new technologies and innovative approaches to the development of industrial tourism, and the prospects for this sector. In addition, the article focuses on the role of industrial tourism in the local economy, opportunities to benefit from this type of tourism, the creation of new tourist experiences, and the importance of implementing innovative approaches in this field. This analysis serves as a valuable resource for specialists in the field of industrial tourism, tourists, and those interested in exploring new trends. The information presented in the article will help readers gain a deeper understanding of the future of industrial tourism and its emerging trends.

**Keywords :** Tourism, industrial tourism, manufacturing enterprises, economy, technologies, factory tour, history of industrial tourism, investments.

Kirish qismi

“Turizm — bu ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hodisa bo‘lib, odamlarning odatiy yashash joyidan boshqa mamlakat yoki hududlarga shaxsiy yoki ish yuzasidan harakatlanishini bildiradi.” <https://www.unwto.org/glossary-tourism-terms>

“Sanoat turizmi — mehnat, innovatsiya va ishlab chiqarish tarixini bevosita joyida his qilish imkoniyatini beradi.” <https://www.erih.net/>





Sanoat turizmi – bu sayyohlarning zavod, fabrika, kon, elektr stansiyalari kabi ishlab chiqarish ob’ektlariga tashrif buyurib, u yerdagi ish jarayoni bilan tanishishi va sanoatning rivojlanishi haqida ma’lumot olishi mumkin bo’lgan turizm yo’nalishidir. Bu turizm turi sanoatning tarixi, zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlari va innovatsion texnologiyalarni ommaga tanishtirishga xizmat qiladi. “Sanoat turizmi 19-asrda paydo bo’lgan bo’lib, zavodlarga tashrif buyurish elitalar va muhandislar orasida mashhur bo’lgan.” <https://www.erih.net/what-is-erih/industrialheritage>. Sanoat turizmi uzoq tarixga ega bo’lib, uning ildizlari sanoat inqilobi davriga borib taqaladi. Odamlar doimo texnologik taraqqiyot va ishlab chiqarish jarayonlariga qiziqib kelgan. Dastlabki sanoat turizmi shakllari 18–19-asrlarda Yevropada paydo bo’lib, bu davrda sanoat inqilobi natijasida zavod va fabrikalar qurila boshlagan edi. Sanoat turizmining o’zining rivojlanish davrlari bor bular- 18-19 asr : sanoat inqilobi davri, 20-asr: sanoat sayyohligi va ta’limiy ekskursiyalar, 21-asr: sanoat turizmining rivojlanishi kabi davrlarni o’z ichiga oladi.

Sanoat turizm asosan –

1. Ishlab chiqarish jarayonlarini o’rganish, 2. Tarixiy sanoat ob’ektlarini o’rganish, 3. Sanoat merosi va uning turizmga ta’siri, 4. Texnologik innovatsiyalar va ekologik muammolar, 5. Sanoat turizmining iqtisodiy va ijtimoiy ta’siri, Sanoat turizmi nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini tushunish, balki iqtisodiyot, tarix, texnologiya va ekologiya kabi muhim sohalarni ham o’rganishga imkon yaratadi. Shu sababli, u turizmning innovatsion va istiqbolli yo’nalishlaridan biri hisoblanadi.

Sanoat turizmi dunyoning ko’plab rivojlangan mamlakatlarida yaxshi yo’lga qo’yilgan. Ushbu davlatlarda sayyohlar uchun zavod, fabrikalar, texnologik markazlar va tarixiy sanoat ob’ektlariga ekskursiyalar tashkil qilinadi. Bular – Germaniya, AQSh, Yaponiya, Janubiy Korea, Xitoy, Fransiya, Buyuk Britaniya, Rossiya, Italiyada rivojlangan. “Sanoat merosi yo’li tezda muvaffaqiyatli namuna bo’ldi. Boshqa Yevropa mintaqalari o’zlarining sobiq sanoat hududlarida ushbu modelni takrorlashga harakat qilishdi.” The Sustainability of Industrial Heritage Tourism Far from the Axes of Economic Development in Europe: Two Case Studies. <https://doi.org/10.3390/su13031077>.



Vazirlar Mahkamasining “Turizmning yangi turlarini joriy qilish hamda mamlakatimizning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga oid qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi [582-sonli] qarori qabul qilindi.<https://www.lex.uz/uz/docs/7114983>. Qaror bilan 2025-yil 1-yanvardan boshlab turizmning quyidagi yangi turi joriy qilinadi: mahsulot ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishishni nazarda tutuvchi sanoat turizmi; sanoat turizmi bo‘yicha — Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda

Investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo vazirligi mas’ul bo‘ladi.»Turizm to‘g‘risida»gi Qonun: 2019-yil 18-iyulda qabul qilingan ushbu qonun turizm sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi va turistik faoliyat subyektlarining huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Manu shu qonun umumiydir.<https://www.invest.gov.uz/uz/news/>. 2025-yil 1-yanvardan boshlab O‘zbekistonda sanoat, geologiya, ilmiy, harbiy va davlat-boshqaruv turizmi kabi yangi turizm turlari joriy qilinadi. Bu orqali sanoat korxonalariga tashriflar tashkil etilishi ko‘zda tutilgan.<https://www.gazeta.uz/oz/2024/10/02/turizm/>.

Sanoat turizmi bo‘yicha aniq global statistik ma’lumotlar mavjud emas, chunki ko‘plab mamlakatlarda bu turizm turi alohida statistik ko‘rsatkich sifatida ko‘riladi. Lekin ayrim davlatlarda bir muncha statistikalar qo‘shiladi. Masalan Rossiyada 2024-yilda umumiy 2 millionga yaqin sayyohlar tashrif buyurgan. Germaniyada ham bunday statistikalar qo‘shilib turadi.

Sanoat turizmi haqida maqola yozishdan asosiy maqsad ushbu turizm turi haqida tushuncha berish, uning ahamiyatini ochib berish va rivojlanish istiqbollari tahlil qilishdir. Quyida maqola yozishning asosiy maqsadlari keltirilgan: 1. Sanoat turizmi tushunchasini ochib berish ; 2. Uning ahamiyati va foydalarini yoritish ; 3. Sanoat turizmining rivojlangan davlatlardagi tajribasini o‘rganish ; 4. O‘zbekistonda sanoat turizmini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar berish ; 5. Ilmiy va tadqiqot maqsadlarida foydalanish kiradi.

### **Metodologiya**

Ushbu maqola sanoat turizmida ishlab chiqarish korxonalarining turistik ko‘rinishini va yangi turizm trendlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, tadqiqot quyidagi



usullari yani tahlil ,sintez va swot tahlildan foydalanilgan holda amalga oshirildi. SWOT tahlil — bu kuchli tomonlar (Strengths), zaif tomonlar (Weaknesses), imkoniyatlar (Opportunities) va tahdidlar (Threats) ni aniqlash orqali strategik tahlil qilish.

### **Kuchli tomonlar (Strengths):**

O‘zbekiston hududida ko‘plab ishlab chiqarish obyektlari mavjud va ular turlicha sanoat turlarini qamrab oladi. Ayrim korxonalar tarixiy, madaniy va texnologik ahamiyatga ega (masalan, Chirchiq elektrokimyo zavodi, Toshkentvino, Texnopark, Navoiy konlari).

Mahalliy va xorijiy turistlarga sanoat texnologiyalari va ishlab chiqarish jarayonlarini bevosita ko‘rsatish imkoniyati mavjud. Sanoat tarixini hikoya qilish orqali turizm mahsulotlarini yanada qiziqarli va noyob qilish mumkin.

Mahalliy va xorijiy turistlarga sanoat texnologiyalari va ishlab chiqarish jarayonlarini bevosita ko‘rsatish imkoniyati mavjud. Sanoat tarixini hikoya qilish orqali turizm mahsulotlarini yanada qiziqarli va noyob qilish mumkin.

### **Zaif tomonlar (Weaknesses):**

Aksariyat sanoat korxonalari turistlar uchun moslashtirilmagan, maxsus infratuzilma va xizmatlar mavjud emas. Turizm xavfsizligi talablariga to‘liq javob bermaydigan obyektlar bor (masalan, yuqori xavfli kimyoviy ishlab chiqarish). Korxonalarda ekskursiyalarni tashkil etish uchun malakali gidlar va maxsus yo‘riqnoma tizimi yetishmaydi. Sanoat turizmi bo‘yicha marketing va reklama ishlari deyarli yo‘q yoki yetarlicha rivojlanmagan.

### **Imkoniyatlar (Opportunities):**

Yangi sanoat-turizm marshrutlarini yaratish, masalan, «Texnologik sayohatlar», «Kon turizmi» kabi yo‘nalishlarni rivojlantirish imkoniyati mavjud. Xorijiy va mahalliy investorlar ishtirokida sanoat obyektlarini turizmga moslashtirish loyihalarini amalga oshirish mumkin. Ta'lim-turizm loyihalari orqali maktab va universitet o‘quvchilari uchun o‘quv ekskursiyalarini tashkil qilish mumkin. Ekologik toza va xavfsiz sanoat obyektlari asosida innovatsion turizm mahsulotlarini ishlab chiqish imkoniyati mavjud.



**Tahdidlar (Threats):**

Ishlab chiqarish jarayonlaridagi avariylar yoki texnik nosozliklar turistlar uchun xavf tug'dirishi mumkin. Atrof-muhitga zarar yetkazilishi ekologik muammolarni keltirib chiqarishi va turizm obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Korxona xodimlari va mahalliy aholining sanoat turizmiga nisbatan salbiy munosabatda bo'lish ehtimoli mavjud. Global iqtisodiy inqirozlar yoki siyosiy o'zgarishlar sanoat turizmining rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

**Asosiy qismi**

O'zbekistonning sanoat salohiyati, tog'-kon va metallurgiya sanoatining rivojlanishi, Muruntov koni va Navoiy kon-metallurgiya kombinati haqida umumiy ma'lumotlar berilgan. <https://uzbekistan.travel/uz/v/sanoat-turizmi/>.

**Sanoat turizmining mazmuni va zamonaviy yondashuvlar**

Sanoat turizmi (industrial tourism) — bu turizmning muqobil shakllaridan biri bo'lib, u orqali sayyohlar zavodlar, fabrikalar, konlar, energiya ishlab chiqarish inshootlari, gidrotexnika qurilmalari kabi sanoat obyektlariga tashrif buyurib, ishlab chiqarish jarayonlarini bevosita kuzatish imkoniga ega bo'ladilar. Ushbu turizm turi ilk bor XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropada sanoat inqilobi davrida shakllana boshlagan bo'lib, dastlabki sanoat obyektlari — to'qimachilik fabrikalari, konlar va bug' dvigatelli mexanizmlar ishlatiladigan sexlar aholi orasida katta qiziqish uyg'otgan. Bugungi kunda sanoat turizmi turizmning yangi trendiga aylangan bo'lib, u madaniy-ma'rifiy, texnikaviy, ilmiy va iqtisodiy yo'nalishlarni o'zida uyg'unlashtirgan. Bu turizm shakli orqali: Mahalliy va xorijiy turistlar ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlari — xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan yo'l bilan tanishadilar; Korxona brendi va ishonchi mustahkamlanadi, shu orqali ichki bozorda ham, eksport salohiyatida ham ijobiy o'sish kuzatiladi; Yoshlar va talabalarda texnikaviy fanlarga, muhandislikka va ishlab chiqarishga qiziqish ortadi; Jamiyat bilan ochiq muloqot shakllanadi, ayniqsa ekologik va xavfsizlik masalalariga doir shaffoflik ortadi. Sanoat turizmi rivojlangan davlatlarda muhim iqtisodiy segmentga aylangan. Masalan, Germaniyada "Route der Industriekultur" (Sanoat madaniyati yo'li) loyihasi doirasida yuzlab sanoat obyektlari sayyohlar uchun ochilgan. Yaponiyada Toyota,



Nissan, Honda kabi avtomobil ishlab chiqaruvchilarning sexlari sayyohlar uchun maxsus turistik yo'nalishlar sifatida tashkillashtirilgan. AQShda esa NASA va Boeing ishlab chiqarish markazlariga tashriflar orqali texnologik turizm rivoj topgan.

**Zamonaviy sanoat turizmida quyidagi yondashuvlar muhim o'rin egallaydi:**

1. Tajriba asosidagi turizm (experiential tourism) — turistlar faqat kuzatuvchi emas, balki ishlab chiqarishning ayrim bosqichlarida ishtirokchi sifatida qatnashadi (masalan, o'z ichimligini ishlab chiqarish, dizayn yaratish, 3D bosma bilan mahsulot tayyorlash).

2. Ma'rifiy turizm (edutourism) — sanoat obyekti atrofida o'quv markazlari, muzeylar, laboratoriyalar tashkil qilinib, bu yerda ekskursiyalar, amaliy mashg'ulotlar, master-klasslar o'tkaziladi.

3. Barqaror sanoat turizmi (sustainable industrial tourism) — ekologik xavfsizlik, chiqindisiz texnologiyalar, qayta ishlash jarayonlarini yoritib berish orqali ijtimoiy mas'uliyatli brendlar targ'ib qilinadi.

4. Madaniy va merosga asoslangan turizm — tarixiy zavodlar, eski konlar, muzeylashtirilgan sanoat infratuzilmalari orqali milliy texnik merosni asrab qolish va targ'ib qilishga xizmat qiladi.

Sanoat turizmi, ayniqsa, post-industriyal bosqichga o'tgan yoki konversiya jarayonini boshdan kechirayotgan hududlar uchun iqtisodiy qayta tiklanish yo'li sifatida qaralmoqda. Ishlab chiqarish qisqarib borayotgan sanoat markazlarida sobiq zavod binolari zamonaviy turizm, biznes va ijodiy inkubatorlarga aylantirilmoqda. Bu esa hududda yangi ish o'rinlari yaratib, mahalliy aholi uchun qo'shimcha daromad manbai bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda ham sanoat turizmining muhimligi endilikda anglanmoqda. Ayniqsa, turizm sohasida diversifikatsiya siyosatining yo'lga qo'yilishi, "mahalliy brend" konsepsiyasini ilgari surish va texnoparklar sonining ortib borishi ushbu turizm turi uchun mustahkam asos yaratmoqda.

**Ishlab chiqarish korxonalarining turistik ko'rinishga aylanishi :**





Bugungi global turizmda tajriba va bilim asosidagi sayohatlar tobora ommalashib bormoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ishlab chiqarish korxonalarining oddiy ishlab chiqaruvchidan tashrif buyuruvchilar uchun qiziqarli maskanga aylanishi tabiiy jarayon bo'lib qolmoqda. Chunki zamonaviy sayyoh faqat tabiat yoki tarixiy obidalarni ko'rishni emas, balki biror mahsulot qanday ishlab chiqarilishini o'z ko'zi bilan ko'rib, jarayon ishtirokchisiga aylanishni xohlaydi.

Ko'plab davlatlar buni allaqachon anglab yetgan. Masalan, Yaponiyada Toyota kompaniyasining zavodiga tashrif buyurish sayyohlar uchun maxsus ekskursiyalar shaklida tashkil etiladi. Bu yerda mehmonlar avtomobil yig'ish liniyalarini ko'ribgina qolmay, virtual simulyatorlar orqali o'zlari mashina yig'ishga ham urinishadi. Yoki Germaniyada joylashgan BMW Welt markazida faqat zavod emas, balki avtomobil madaniyatiga oid muzey, tajriba markazi, hatto bolalar uchun mini-laboratoriyalar ham mavjud. Shuningdek, ishlab chiqarish joylarining turistik ko'rinishga aylanishi hudud rivojiga ham ijobiy ta'sir qiladi. Masalan, qishloq yoki chekka tumanlarda joylashgan zavodlar sayyohlarni jalb qilsa, u yerda transport, xizmat ko'rsatish, ovqatlanish, mehmonxona kabi sohalar ham rivojlanadi. Bu nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy natijalarga ham olib keladi — yangi ish o'rinlari yaratiladi, mahalliy aholi turizm jarayonlariga jalb etiladi. Dunyo bo'yicha sanoat korxonalarining turizm obyektiga aylanishi tobora tizimli tus olmoqda. Xususan, rivojlangan davlatlarda bu yondashuv davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Masalan, Fransiyada "Route des Vins" (Sharob yo'li) bo'ylab joylashgan vino zavodlari har yili millionlab sayyohlarni jalb qiladi. Har bir vino korxonasi o'z hududida muzey, degustatsiya markazi, restoran va ko'rgazma zallarini tashkil etgan. Bunda turist nafaqat mahsulotni tatib ko'radi, balki uning ishlab chiqarilishi, saqlanishi, brendlashuvi bilan ham tanishadi. Bu "turizm orqali savdo" yondashuvi sanoat korxonalarining barqaror daromad manbaiga aylanishiga xizmat qilmoqda. Italiyada, ayniqsa Florensiya va Turin atrofida joylashgan charm, ipak va dizayn mahsulotlari ishlab chiqaruvchi ustaxonalar va sexlar turistik marshrutlarga kiritilgan. Sayyohlar bu yerda qo'lda ishlab chiqarish sirlarini, tarixiy ustaxonalar faoliyatini ko'rib, amaliy mashg'ulotlarda qatnashadilar. AQShda esa NASA, Boeing va Coca-Cola kabi brendlar o'z ishlab chiqarish markazlariga ekskursiyalar



uyushtiradi. Masalan, Coca-Cola kompaniyasining Atlanta shahridagi “World of Coca-Cola” markazi yiliga 1 milliondan ortiq mehmonni qabul qiladi. Janubiy Koreya va Xitoyda esa yuqori texnologiyalarga asoslangan zavodlar turistik vohalarga aylangan. Samsung, LG, Huawei singari kompaniyalar ishlab chiqarish liniyalarini nafaqat mahalliy, balki xorijiy turistlar uchun ham ochgan. Bu zavodlarda virtual real voqelik (VR), interaktiv ekranlar va multimedia gidlar yordamida sayohat tajribasi taklif etiladi.

Markaziy Osiyo tajribasi. Markaziy Osiyoda bu yo‘nalish endi shakllanmoqda. Qozog‘istonda Temirtau va Qarag‘anda shaharlarida joylashgan metallurgiya zavodlari, ko‘mir konlari va energetika inshootlari turizm uchun moslashtirilgan. Masalan, “Kazakhmys” kompaniyasi o‘zining mis qazib olish konlarida ko‘rgazmali ekskursiyalar tashkil qilgan. Bu ekskursiyalar talabalarga, sanoat mutaxassislariga va sayyohlik guruhlariga mo‘ljallangan. Qirg‘izistonda esa Issiqko‘l viloyatida joylashgan qadoqlash, baliqchilik va to‘qimachilik korxonalari asosida lokal turizm marshrutlari yaratilgan. Qolaversa, tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog‘liq sanoat obyektlari ekologik turizm bilan uyg‘unlashtirilmoqda.

#### O‘zbekiston tajribasi

O‘zbekistonda esa sanoat turizmi rivoji endi boshlanayotgan bo‘lsa-da, istiqboli yuqori yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Respublikamizda mavjud konlar, energetika tizimi, avtomobilsozlik, to‘qimachilik, oziq-ovqat sanoati va kimyo tarmoqlari kuchli baza sifatida xizmat qilishi mumkin. Misol uchun: Navoiy kon-metallurgiya kombinati (NKMK) va Olmaliq kon-metallurgiya kombinati (OKMK) nafaqat texnologik jihatdan zamonaviy, balki tarixiy va iqtisodiy ahamiyatga ega. Navoiy tog‘-kon metallurgiya kombinati hududida sanoat turizmi yo‘nalishidagi infratuzilma obyektlari o‘rganilib, sayyohlar uchun oltin qazib olish konida tog‘ jinslarini portlatish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini kuzatish imkoniyati yaratilishi rejalashtirilgan. <https://kun.uz/37831513>.

Agar bu obyektlar sayyohlar uchun ochiq maydonga aylantirilsa, nafaqat ichki, balki xorijiy texnikaviy turizm ham rivojlanadi. UzAuto Motors zavodi — Markaziy Osiyodagi eng yirik avtomobil ishlab chiqaruvchisi bo‘lib, u yerda avtomobil ishlab



chiqarish jarayoni, robotlashtirilgan liniyalar, sinov laboratoriyalari turistlar uchun katta qiziqish uygʻotadi. Angren IES, Sirdaryodagi GRES va Yangi-Angrendagi issiqlik elektr stansiyasi energetika sanoatining texnikaviy tajribalari orqali zamonaviy “energetik turizm” yoʻnalishiga asos boʻla oladi. Yangiyoʻl, Chirchiq, Bekobod va Ohangaron shaharlarida joylashgan kimyo, qurilish materiallari va oziq-ovqat sanoati korxonalari oʻz yoʻnalishida mahalliy sayyohlar uchun oʻquviy va koʻrgazmali ekskursiyalar markaziga aylanishi mumkin. Oʻzbekistonning koʻplab hududlarida bu turizm rivojlanmoqda. Namangan viloyatida kichik sanoat zonalarini tashkil etilib, sanoat turizmi yoʻnalishi rivojlantirilmoqda. Bu tajriba boshqa viloyatlar uchun namuna boʻlishi

mumkin. <https://yuz.uz/uz/news/sanoat-turizmi---namangan-butun-dunyogaturizmning-yangi-yonalishini-taqdim-etdi>. Shuningdek, Oʻzbekistonda sanoat korxonalariga yondosh «Industrial heritage tourism» — sanoat merosi turizmi ham rivojlantirilishi mumkin. Masalan, eski temiryoʻl deposi, sobiq zavod binolari, GES inshootlari rekonstruksiya qilinib, madaniy obyekt yoki muzeyga aylantiriladi. Bu model aynan Germaniya va Angliyada muvaffaqiyatli qoʻllanilgan.

Yangi trend sifatida sanoat turizmining istiqbollari

Bugungi globallashtirish davrida insonlar nafaqat dam olish, balki bilim olish, yangiliklarni oʻrganish va oʻz tajribasini boyitishni ham istashmoqda. Aynan shu ehtiyoj sanoat turizmining yangi trend sifatida shakllanishiga turtki boʻldi. Anʼanaviy turizm turlaridan farqli ravishda, sanoat turizmi sayyohlarga zavod va fabrikalarning haqiqiy ishlab chiqarish jarayonlarini koʻrish, texnologik yangiliklar bilan tanishish va hatto ayrim hollarda bu jarayonlarda ishtirok etish imkonini beradi. Dunyo miqyosida, ayniqsa Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, AQSH kabi sanoati rivojlangan davlatlarda sanoat turizmi nafaqat iqtisodiy foyda, balki taʼlimiy ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, Yaponiyaning Toyota kompaniyasining muzeylari va ishlab chiqarish liniyalari har yili minglab sayyohlarni jalb etadi. Bu orqali brend imidji kuchaytiriladi, yosh avlodga ilhom beriladi va tashqi dunyoga texnologik kuch namoyon qilinadi. Oʻzbekistonda esa ushbu yoʻnalish endigina shakllanmoqda. Ammo mavjud imkoniyatlar va sanoat salohiyatidan kelib chiqib aytish mumkinki, bu sohaga





bo'lgan qiziqish yildan-yilga ortib bormoqda. Navoiy va Olmaliqdagi tog'-kon kombinati, Chirchiqdagi elektrotexnika zavodlari, Toshkent texnoparki yoki Yangi hayot sanoat zonasi kabi obyektlar sanoat turizmi uchun nihoyatda mosdir. Ushbu obyektlar atrofida axborot markazlari, kutubxonalar, ishlab chiqarish tarixi bilan tanishtiruvchi ekskursiyalar tashkil etilishi sayyohlar oqimini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, sanoat turizmi orqali yoshlar real ishlab chiqarish muhiti bilan tanishadi, kasbga bo'lgan qiziqishi ortadi, oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi hamkorlik mustahkamlanadi. Ayniqsa, "dual ta'lim" tizimini qo'llab-quvvatlashda sanoat turizmi muhim vosita bo'lishi mumkin. Yaqin istiqbolda O'zbekiston sanoat turizmini rivojlantirish orqali nafaqat iqtisodiy daromadga erishadi, balki milliy brendni targ'ib qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish va xorijiy sarmoyadorlarni jalb etishda ham muhim qadam qo'yadi. Bu yo'nalishdagi strategik reja va infratuzilma rivoji sanoat turizmini yangi bosqichga olib chiqadi. Shuningdek, sanoat turizmi hozirgi kunda zamonaviy turizmning kross-sektorial shakliga aylanmoqda. Ya'ni u nafaqat ishlab chiqarish sohasi bilan, balki ta'lim, madaniyat, ekologiya va texnologiyalar bilan ham chambarchas bog'liq bo'lmoqda. Masalan, ekologik jihatdan toza texnologiyalarni qo'llagan korxonalar «yashil turizm» yo'nalishida ham xizmat ko'rsata oladi. Bunday tajribalar Yevropaning ayrim mamlakatlarida keng qo'llanmoqda. Shu tarzda sanoat obyektlari nafaqat ishlab chiqarish markazi, balki o'quv, innovatsion va hatto rekreatsion maskanga aylanmoqda. Markaziy Osiyoda sanoat turizmining rivojlanishi mintaqaviy hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, Qozog'istonda Karaganda konchiligi bo'yicha ekskursiyalar, Qirg'izistonda to'qimachilik fabrikalari va gidroelektr stansiyalariga tashriflar ommalashmoqda. O'zbekiston esa geoiqtisodiy joylashuvi va boy sanoat infratuzilmasi bilan mintaqadagi yetakchi markazga aylanishi mumkin. Shu maqsadda sanoat muzeylari, texnoparklarda ochiq eshiklar kunlari va sanoat festivallarini tashkil etish orqali turizmning bu turini keng ommalashtirish mumkin. Davlat siyosatida ham sanoat turizmini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2024-yilda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Turizm qo'mitasi va Ta'lim vazirligi o'rtasida sanoat-innovatsion ekskursiyalarni tashkil etish bo'yicha



memorandumlar imzolandi. Ushbu tashabbuslar orqali maktab va kollej o'quvchilari, oliy ta'lim muassasalari talabalari sanoat korxonalariga ekskursiyalar orqali amaliy bilimga ega bo'lish imkoniga ega bo'lmoqda. Yaqin kelajakda raqamlashtirish, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari sanoat turizmini yanada jozibador qiladi. Masalan, kelajakda sanoat ob'ektlariga virtual ekskursiyalar, AR (augmented reality) texnologiyasi yordamida interaktiv ko'rgazmalar tashkil etilishi kutilmoqda. Bu esa turizm tajribasini yangi darajaga olib chiqadi.

Geoturizm, geologik turizm, kon turizmi va ishlab chiqarish turizmining sanoat turizmi bilan bog'liqligi

Turizmning zamonaviy shakllari tobora ko'proq ixtisoslashayotgan bir paytda, sanoat turizmi bilan chambarchas bog'liq yo'nalishlar – geoturizm, geologik turizm, kon turizmi va ishlab chiqarish turizmi alohida e'tiborga loyiq. Ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa-da, mazmunan va maqsadan kelib chiqib sanoat turizmi bilan bir yo'nalishda harakatlanadi. Aynan shu uyg'unlik sanoat turizmining imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

**Geoturizm** – bu sayyohlarni tabiiy geologik shakllanishlar, landshaftlar, tog' tizmalari, vodiylar, g'orlar va boshqa yer qatlamlari bilan tanishtirishga qaratilgan turizm turi bo'lib, u ko'pincha madaniy va ilmiy maqsadlarga xizmat qiladi. Geoturizm sanoat turizmi bilan ayniqsa kon sanoati joylashgan hududlarda kesishadi. Masalan, tog'-kon hududlaridagi eski karerlar, qazilma maydonlari va geologik ekspozitsiyalar geoturizm ob'ektlari bo'lishi bilan birga, sanoat turizmi marshruti sifatida ham ishlatiladi. Bunday joylarda geologik bilim berish bilan birga, sanoat jarayonlarini ham ko'rsatish mumkin.

**Geologik turizm** esa geoturizmning yanada ilmiyroq yo'nalishi bo'lib, u asosan geologiya sohasi vakillari, talaba va tadqiqotchilarni qamrab oladi. Bu turizmدا sayyohlar yer qatlamlari, minerallar, tog' jinslari va vulkanik faoliyat bilan tanishishadi. Aynan ushbu tur turli kon va qazib olish sanoati bilan uzviy bog'langan. Geologik obyektlarni o'rganish orqali kon sanoati qanday rivojlanganini, yer resurslari qanday topilishini va ishlatilishini tushunish imkonini beradi. Shu sababli, geologik turizm sanoat turizmi uchun ilmiy-ma'lumotli asos bo'lib xizmat qiladi.



**Kon turizmi** esa sanoat turizmining to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘nalishlaridan biridir. Bu turda sayyohlar sobiq yoki faol konlar, yer osti shaxtalari, qazilma boyliklar omborlari va ularni qayta ishlash korxonalariga tashrif buyurishadi. Masalan, O‘zbekistondagi Navoiy konmetallurgiya kombinati (NKMK) va Olmaliq konmetallurgiya kombinati (OKMK) atrofidagi sanoat hududlari kon turizmini rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Bunday obyektlarga tashrif nafaqat sayyohlar uchun qiziqarli, balki yoshlar uchun kasb tanlashda muhim rol o‘ynashi mumkin.

**Ishlab chiqarish turizmi** esa sanoat turizmi ichida eng ommalashayotgan turlardan biri hisoblanadi. Bu yo‘nalishda sayyohlar turli ishlab chiqarish korxonalari – avtomobil zavodlari, oziq-ovqat fabrikalari, to‘qimachilik kombinatlari, texnologik parklar va boshqa obyektlarga tashrif buyurishadi. Ishlab chiqarish jarayonini bevosita ko‘rish, mahsulot yaratilish bosqichlarini kuzatish va hatto ayrim hollarda o‘zlari ishtirok etishlari sayyohlarda katta taassurot qoldiradi. Ishlab chiqarish turizmi iqtisodiy-ma‘naviy ta‘lim vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Umuman olganda, yuqoridagi turizm turlarining barchasi sanoat turizmining tarkibiy qismi yoki unga yaqin yo‘nalishlar hisoblanadi. Ularni birgalikda

rivojlantirish orqali sayyohlarga yanada boy, kompleks, ma‘lumotli va interaktiv tajriba taqdim etish mumkin bo‘ladi. Ayniqsa, O‘zbekiston kabi geologik boyliklarga va sanoat salohiyatiga ega mamlakatda ushbu yo‘nalishlarning integratsiyalashgan rivoji turizm sohasining yangi bosqichiga olib chiqishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, sanoat turizmi — bu faqatgina yangi turistik yo‘nalish emas, balki jamiyat, iqtisodiyot va ta‘limni birlashtiruvchi strategik sektor. U O‘zbekistonni dunyo turizm xaritasida o‘ziga xos, innovatsion markazga aylantirishga xizmat qilishi mumkin.

#### Natijalar va xulosalar

O‘zbekiston va Markaziy Osiyoda sanoat turizmining shakllanishi va rivojlanishi global turizm yo‘nalishlari bilan uyg‘un holda kechmoqda. Tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, sanoat turizmi nafaqat iqtisodiy foyda keltiradigan, balki madaniy-ma‘rifiy ahamiyatga ega bo‘lgan turizm sohasi sifatida qaralmoqda. Bu





yo'nalish orqali mahalliy va xorijiy sayyohlar mamlakatdagi yirik ishlab chiqarish korxonalari faoliyati bilan yaqindan tanishib, sanoat salohiyatiga real baho bera olishadi. O'zbekistonda bu borada ilk qadamlar qo'yilgan bo'lsada, hali ishga solinmagan salohiyatlar juda katta. Ayniqsa, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Toshkentdagi texnoparklar, to'qimachilik fabrikalari, avtomobil zavodlari sanoat turizmi uchun katta imkoniyatlarga ega. Sanoat hududlarida yaratilgan infratuzilma, ilg'or texnologiyalar, zamonaviy ishlab chiqarish tizimi sayyohlar e'tiborini tortishi bilan birga, yoshlar uchun ham amaliy o'quv maydoniga aylanishi mumkin. Bundan tashqari, sanoat turizmi boshqa ixtisoslashgan yo'nalishlar bilan — masalan, geoturizm, kon turizmi, geologik va ishlab chiqarish turizmi bilan uzviy bog'liqligi tufayli keng ko'lamli turistik mahsulotlar yaratishga imkon beradi. Ayniqsa, tog'-kon sanoati rivojlangan hududlarda bunday yondashuvlar ekologik, geologik va sanoat madaniyatini birlashtirgan kompleks turizm formatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, sanoat turizmining istiqbollari juda keng. Bu sohaning rivoji quyidagi yo'nalishlar orqali kuchaytirilishi mumkin; Mavjud sanoat obyektlarini turistik ob'yektlar sifatida tanitish va rasmiylashtirish; Sanoat korxonalari ishtirokida ta'limiy-ekskursiya dasturlarini yo'lga qo'yish; Turizm, sanoat va ta'lim sohalari o'rtasida ko'priklarni bo'luvchi dasturlarni ishlab chiqish; Hududiy brend sifatida sanoat turizmini targ'ib qilish;

Xalqaro tajribalarni o'rganish va mintaqaviy hamkorlik doirasida yangi loyihalarni amalga oshirish. Shuningdek, sanoat turizmi O'zbekistonning xalqaro imidjini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, ichki va tashqi turizmni jonlantirish, yoshlarni texnika va ishlab chiqarishga qiziqtirish kabi ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy foydalarni ham taqdim etadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, to'g'ri yo'naltirilgan sanoat turizmi nafaqat sanoat tarmoqlari uchun, balki butun mamlakat iqtisodiyoti uchun strategik kuchga aylanishi mumkin. Shuningdek, tahlillar shuni ko'rsatadiki, sanoat turizmining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan ham muhim natijalarga olib keladi. Jumladan: Mahalliy hamjamiyatlar faollashadi: sanoat obyektlariga tashrif buyuradigan sayyohlar mahalliy aholining qo'shimcha xizmatlar (gidlik, transport, ovqatlanish, suvenirilar) orqali



daromad olishiga imkon beradi. Bu ayniqsa, ishlab chiqarish hududlarida yashovchilar uchun yangi daromad manbai bo'lishi mumkin. Sanoat merosining saqlanishiga xizmat qiladi: Ko'plab eski ishlab chiqarish obyektlari tarixiy va texnik meros sifatida turizm obyektlariga aylantirilmoqda. Bu esa sanoat madaniyatining yo'qolib ketishining oldini oladi. O'zbekiston misolida bu sobiq zavodlar, elektr stansiyalari va konlardan foydalanish orqali amalga oshirilmoqda. Yoshlar va talabalarda motivatsiya oshadi:

sanoat obyektlariga ekskursiyalar o'tkazilishi ularning texnik sohalarga qiziqishini kuchaytiradi, real ishlab chiqarish jarayonini ko'rish orqali kasbga yo'naltirish samarador bo'ladi. Ayniqsa, turizm, muhandislik va texnologiya sohasida o'qiyotgan talabalar uchun bu katta tajriba maktabi bo'la oladi. Ichki turizmda yangi segment paydo bo'ladi: Sanoat turizmi klassik sayohatlardan farqli o'laroq, yangi auditoriyani — fan, texnologiya, ishlab chiqarish bilan qiziqadigan kishilarni qamrab oladi. Bu esa O'zbekiston turizm tarmog'ini diversifikatsiya qilishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Barqaror turizm modeli shakllanadi:

Sanoat turizmi ko'pincha mavjud infratuzilma (yo'llar, korxonalar, binolar) bazasida quriladi. Bu esa ekologik barqarorlik, kam xarajat va tez natijaga erishish imkonini beradi. Yashil energiya ishlatilayotgan zavodlar esa ekologik turizm bilan ham uyg'unlashadi. Natijaviy jihatdan qaralganda, sanoat turizmi — bu faqat ekskursiya emas, balki kompleks ijtimoiy-iqtisodiy vosita. U milliy brend yaratish, xalqaro turizm bozorida yangi imidj shakllantirish, va eng muhimi, texnologik taraqqiyotga hurmat uyg'otishning samarali usuli hisoblanadi.

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR**

- 1.<https://kun.uz/37831513>.
- 2.<https://uzbekistan.travel/uz/v/sanoat-turizmi/>
- 3.<https://yuz.uz/uz/news/sanoat-turizmi---namangan-butun-dunyoga-turizmning-yangiyonalishini-taqdim-etdi>
- 4.<https://www.gazeta.uz/oz/2024/10/02/turizm/>
- 5.<https://yuz.uz/uz/news/navoiyda-geoturizm-va-sanoat-turizmi-rivojlantiriladi>
- 6.<https://doi.org/10.3390/su13031077>
- 7.<https://www.unwto.org/glossary-tourism-terms>
- 8.<https://www.erih.net/>
- 9.<https://www.erih.net/what-is-erih/industrial-heritage>.
- 10.<http://www.lex.uz/uz/docs/-7114983.Qaror>
- 11.<http://www.invest.gov.uz/uz/news/>.